

### **VATAN MUQADDAS DARGOH**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Tarix mamlakatlar va yo'nalishlar talabasi*

***Ne'matov Shoxrux***

***Tel: +998995018098; +998339440898***

***E-mail:sohibiddin968@gmail.com***

***Annotasiya.*** Ushbu maqolada Vatan muqaddas dargoh ekanligi, uning nomi qalblarda abadiy yashashligi to'g'risida fikr yuritiladi. Bu ajib so'zning asl ma'nosi ona yurt demakdir. Ajabo, bu so'zning ma'nosi naqadar ulug'ki, insoniyatga dunyo ne'matlari ichida eng mo'tabar bo'lgan ona siymosi bilan hamohang ifoda etiladi. Ushbu fikrlar borasida maqolada izoh berishga harakat qilinadi.

***Kalit so'zi.*** Vatan, ona, muqaddas diyor, kindik to'kilgan qon.

***Аннотация.*** В этой статье делается рассуждение о том, что Родина-это Святой Грааль, имя которого вечно живет в сердцах. Истинное значение этого чудесного слова-родная земля. Удивительно, как велик смысл этого слова, который выражается синхронно с фигурой матери, самой почетной среди мирских благ человечеству. По поводу этих моментов в статье постараются дать разъяснения.

***Ключевое слово.*** Родина, Мать, Святая Земля, кровь, пролитая из пупка.

***Annotation.*** This article argues that the Motherland is the Holy Grail, whose name lives forever in our hearts. The true meaning of this wonderful word is native land. It is amazing how great the meaning of this word is, which is expressed synchronously with the figure of the mother, the most honorable among the worldly goods of mankind. They will try to provide explanations about these points in the article.

*The key word. Homeland, Mother, Holy Land, blood spilled from the navel*

**Kirish.** Xalqimizda azaldan Vatan so'zi ila ona so'zini bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Ona-Vatan bu Vatanning onadek aziz, mehribon va jonkuyarligiga ishoradir. **Bu borada yurtimizda shuhrat qozongan mashhur shoir Uyg'on o'z she'rlarida izohlashga harkat qilgan.**

Chindan ham, inson uchun onadan-da qadrliroq zot bormi?! Jism-u jon ato etib, yana boshimizda tunlarni bedor o'tkazgan zotdan-a? O'ziga bor zahmatlarni olib rohatni fazrzandiga ilinganini ta'riflashga har qancha „mehribon” degan so'z kamlik qilmaydimi?! O'zga jon uchun uning baxti va kamoli yo'lida kerak bo'lsa, o'z jonidan ham voz kechadigan yana qanday kimsa bor?! Aslida esa, mana shu tuyg'u va tasavvurlarning barchasi Vatanning bir parchasi, bir bo'lagi xolos. Vatan! Bu so'zga qancha ta'rif-tavsif berishga harakat qilmay qalamim ojiz qilayotgandek, go'yo. Qancha urinmay ko'ngil to'lmayotganga o'xshaydi. Negaki, Vatan bizga Alloh tomonidan berilgan eng buyuk ne'mat bo'lib, u haqida har qancha yozsang ham yana qaysidir jihatlari qolib ketaveradi, misralar ojiz, g'aribday go'yo, Vatan haqida aytmqochi bo'lganlaring esa, behisob, shunchalar ko'pki, hisobda adashib ketasan kishi...

Ayniqsa, Payg'ambarimiz Muhammad sollollohu alayhi vasallam Makkadan chiqib ketishni istamadilar, faqat Makka mushriklarining u zotga zulmlari haddan oshgandan so'ngina Robbimizning izni va ko'rsatmasi bilan sevimli Vatanlaridan chiqib ketdilar. Chiqish vaqti kelganida ko'zga yosh oldilar, ko'ngillar bo'shashib ketadigan so'zlar aytdilar: „ **Makka! sendan ko'ra menga suyuqliroq va sevimliroq shahar yo'q. Agar qavmim seni tashlab chiqishimga majbur qilmaganida also sendan boshqa joyni makon tutmasdim**”. Suyukli Payg'ambarimiz alayhissalomni Vatanlariga nisbatan aytgan bu go'zal so'zlariga e'tibor qiling! Vatanning havosi, suvi, tuprog'i va barchasi bamisoli

[www.raqiqotlar.uz](http://www.raqiqotlar.uz)

shifodir. Najmiddin Kubro esa Qo'lida Vatan bayrog'i ila jon berganligi hamda imom bo'lmish buyuk muhaddis xazrat Buxoriy kabi ulug'larimiz o'z tabarruk nomlarini Vatan bilan bog'laganliklari bizga Vatan qadr-u muhabbatini eslatib turgandek bo'laveradi. Vatanni sevmog' yuksak insoniy fazilatdir. Bu borada: „**Vatanni sevmog' imondandir**”, degan hikmatli so'zni esga olishning o'zi kifoya. „Vatan ostonadan boshlanadi”, deganlaridek, Vatan har bir kishining qalbida, yuragida yashaydi. Vatan bu biz nasaf olayotgan hurzbaxsh havodir. Har bir inson o'zini Vatannig bir zarrasi ekanini bilmog'i kishi uchun iftixor va buyuk sharaf bo'lib, u - kindik qonimiz to'kilgan, jonga- jondosh, qalbga-sirdosh eng ulug' kalomdir.

Vatan – muqaddas dargoh. Bulbul o'z tikonzorida yayrab sayraganidek, odamzot ham o'z ona tuprog'ida baxt osmonida uchmog'i mumkin. Vatan haqida yozmoqchi bo'lganlarim bisyorki, go'yoki uni ta'riflashga bir inson umri yetmaydi. Unga xizmat qilish esa undanda mas'uliyatdir. Hayotimizni asosiy bo'lagi hisoblangan bu tushuncha bizga naqadar zarur. Shu o'rinda, buyuk Adabiyotshunos olim O'zbekiston Respublikasi qahromoni Ozod Sharofiddinovning ushbu so'zlarini ta'kidlash joiz: „Vatan mensiz yashashi mumkin, ammo men Vatansiz yashay olmayman”.

### **Xulosa**

Bu hayotda yashar ekanmiz, albatta, qalbimizda Vatanga bo'lgan muhabbat yuksak o'rin egallamog'i lozim. Inson hamisha faqat o'zining manfaatlari emas, balki Vatani va jamiyati manfaatlarini o'ylab ham harakat qilmog'i lozim. Insonning qalbida bu his mavjud bo'lsa, u albatta o'z Vatani ravnaqi uchun harakatini ayamaydi. Vatanimiz O'zbekistonning bugungi taraqqiyoti ham ayni bizning sa'y harakatlarimizga bog'liqdir. Shu sababdan ham ilm yo'lida doim harakatda bo'lishimiz lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://hidoya.uz/uz/news/562>
2. [Rustambek Shamsutdinov](#). Vatan tarixi 1-kitob. Toshkent-2010.
3. Rustambek Shamsutdinov. Vatan tarixi 2-kitob. Toshkent-2010
4. [B.J. Eshov](#). O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi.  
Toshkent - [Yangi Asr Avlodi](#)-2012